













Nogironligi bor insonlarning bepul huquqiy yordam olishi



	Bu maqolada sen bepul huquqiy yordam olish haqida bilib olasan.
	**Bepul ixtiyoriy huquqiy yordam** – bu tajribasi bor advokat, huquqshunoslar senga o‘zi xohlab bepul huquqiy yordam berishi.
	Senga: ● nodavlat notijorat tashkilotlari ● advokatlar ● huquqiy yordam markazlari bepul huquqiy yordam beradi.
	**Advokat** – bu huquq sohasida diplomi va bilimi bor inson.
	**Nodavlat Notijorat Tashkilotlar** – bu ● Insonlar va tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan ● Maqsadi pul topish bo‘lmagan ● Ishlab topilgan pullarni o‘z ishchilariga bo‘lib bermaydigan





	• O‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkilot.
	Konstitutsiyaga ko‘ra sen bepul huquqiy yordam olishing mumkin.
	**Konstitutsiya** – bu sening imtiyoz va majburiyatlaring yozilgan hujjat.
	Senga davlat bepul huquqiy yordam berishi haqida: • Konstitutsiya moddalari • Prezident qaror • Farmonlari • Vazirlik qarorlari bor.
	**Sen** O‘zbekistondagi yordamga muhtoj insonlar ro‘yxatiga kirgan bo‘lsang, 2023-yil 16-iyundagi 848-sonli qarorning 9-moddasiga ko‘ra davlatdan bepul huquqiy yordam olishing mumkin.
	**Sen sudda:** • da’vogar bo‘lsang • javobgar bo‘lsang • arizachi bo‘lsang • huquqbuzarlik qilgan bo‘lsang


	• gumon qilinuvchi bo‘lsang • ayblanuvchi bo‘lsang • sudlanuvchi bo‘lsang senga davlat bepul advokat beradi.
	Sen davlat tomonidan bepul huquqiy yordam olish uchun Adliya vazirligiga **og‘zaki** yoki **yozma** murojaat qilishing kerak.
	Sen davlatdan internet orqali bepul huquqiy yordam olishing ham mumkin.
	Sen internet orqali yordam olishing uchun huquqiy yordam xizmati bor.
	**Internetdagi Yuridik yordam** xizmatidan foydalanish uchun: • https://e-advokat.uz/ internet manziliga kirasan • murojaat yuborish bo‘limini tanlaysan • so‘ralgan ma’lumotlarni va savolingni yozib qoldirasan.

	2008-yil 20-iyundagi 137-son qarorga ko‘ra: • agar sen yordamga muhtoj • kam daromadli insonlar ro‘yxatiga kirgan bo‘lsang seni sudda himoya qiladigan advokatga davlat pul to‘laydi.
	**Sen va sening oilang oyiga:** • 553 ming 350 (besh yuz ellik uch ming uch yuz ellik) so‘mdan kam pul topsa, yordamga muhtoj, kam daromadli hisoblanadi.
	Sen yordamga muhtoj insonlar ro‘yxatiga kiritilmagansan lekin, ruhiy kasallik sabab psixiatrda davolanayotgan bo‘lsang senga davlat bepul huquqiy yordam beradi.
	Jinoyat kodeksining 51-moddasiga ko‘ra senda: • ko‘rishda • eshitishda • gapirishda • jismoniy • ruhiy nogironlik bo‘lsa senga davlat bepul huquqiy yordam beradi.

	O‘zbekistonda senga bepul huquqiy yordam beruvchi **Madad** nodavlat notijorat tashkiloti ham bor.
	**Madad** tashkilotining O‘zbekistonda **73 ta** huquqiy yordam markazlari bor.
	**Madad** tashkilotining manzillarini https://advice.uz/oz/offices internet sahifasidan ko‘rishing mumkin.
 **(71) 256-52-53**	Sen savollaringni yoza olmasang Madad tashkiloti raqamiga qo‘ng‘iroq qilishing mumkin. • (71) 256 52 53
	Sen **Madad** tashkilotining internetdagi https://advice.uz/oz sahifasi orqali ham bepul huquqiy yordam olishing mumkin.
	**Sen Madad** https://advice.uz/oz internet sahifasidan foydalanishda **telefon raqaming** bilan **ro‘yxatdan o‘tishing** kerak.

	**Madad** https://advice.uz/oz internet sahifasining yozuv o‘lchamlari va ko‘rinishini o‘zgartirish mumkin.
	**Internetda Legal Tech** https://yurxizmat.uz/uz/news/ xizmati ham bor.
	**“Legal Tech”da sen:** ● huquqiy shartnomalar ● buyruq ariza ● dalolatnoma ● boshqa hujjatlarni tayyorlashing mumkin.
	O‘zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi ham senga bepul huquqiy maslahat beradi.
	Sen **SHAROIT PLYUS** tashkilotining **Huquq plyus** www.huquqplus.uz internet sahifasi orqali huquqiy savollaringga bepul javob olishing mumkin.

	Sen bepul huquqiy yordam olmoqchi bo‘lsang O‘zbekiston advokatlar palatasiga ham murojaat qilishing mumkin.
	**Advokatlar palatasi** – bu O‘zbekistondagi advokatlarning a’zo bo‘lishi shart bo‘lgan tashkilot.
	Advokatlar palatasi huquqiy yordamga muhtoj insonlarga **bepul huquqiy yordam beradi** va bepul huquqiy yordam berishni rivojlantiradi.
	Advokatlar palatasi manzili: • O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani, Buyuk ipak yo‘li 471 • Telefon raqami: (71) 261 61 43
	• Toshkent davlat yuridik universiteti • Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetlari ham sening huquqiy savollaringga javob beradi.
	Toshkent davlat yuridik universiteti huquqiy yordam markazi manzili: • Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy, TDYU 1-o‘quv binosi, 124-xona

	• Ish vaqti: dushanbadan - jumagacha soat 10:00 dan 15:00 gacha • Telefon raqami: (71) 233 66 36 ga telefon qilgandan keyin 1114-ichki raqamni terishing kerak. • Telegram manzil:@TDYU_Yuridik_klinika_bot
	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huquqiy yordam markazi manzili: • Mustaqillik shoh ko‘chasi 54, JIDU A-o‘quv binosi. • Ish vaqti: dushanbadan jumagacha soat 16:00 dan 19:00 gacha • Telefon raqam: • (71) 268 14 21 • (71) 267 16 15
	**Huquqiy markazlar senga:** • meros • oila • ish • uy-joy • boshqa muammolarni hal qilishingda • huquqiy maslahatlar • sud • suddan tashqari hujjatlar tayyorlashda yordam beradi.